

MALIKUSHSHUARO BAHORNING HAYOTI
VA IJODIЖИЗНЬ И ТВОРЧЕСТВО
МАЛИКУШШУАРО БАХАРTHE LIFE AND WORK OF
MALIKUSHSHUARO BAHOR

Feruza NIZAMOVA,

International Islamic Academy,
OF UZBEKISTAN, PhD, Senior Lecturer,
Department of Classical Literature and Origins,
A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan.
f.nizamova@iiiau.uz

DOI: 10.47980/IIAU/2023/4/6

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr adabiyoti taniqli namoyandasi, shoiri Malikushshuaro Bahorning ijodini o'rganishga va tahlil qilishga harakat qilingan. Maqolaning maqsadi – XIX asr ijodkorlari asarlaridagi mafkuraviy va badiiy usulni o'rganish, shuningdek, davr nasriy asarlarini tahlil qilish orqali fors-tojik adabiyoti tarixidagi o'rnini aniqlashdan iboratdir.

Odatda, fors-tojik klassik adabiyoti haqida gap ketganda, faqat nazm tilga olinadi-yu, nasr esa biroz e'tibordan chetda qoladi. Shuning uchun qadimgi va o'rta asr fors-tojik adabiyotida nazm nasrdan ustun bo'lgan degan fikrlar ham mavjud. Darhaqiqat, fors-tojik klassik adabiyoti, avvalo, o'zining ma'naviy g'oyalarga boy she'riy asarlari bilan jahon madaniyati xazinasidan munosib o'rin egalladi. Firdavsiy, Xayyom, Sa'diy, Hofiz asarlari asrlar osha o'zining go'zal tarovatini saqlab kelmoqda. Buning asosiy sababi ularning asarlaridagi nafosat, xalqchilik, insonparvarlik, sharqona fozillik va donishmandlik kabi fazilatlaridir.

XIX asr fors-tojik poeziyasi o'zining shakl va mazmuni jihatidagina emas, balki badiiyati nuqtai nazaridan ham eng yuqori darajaga erishgan edi. Shu sababli eronshunos olimlar o'sha davr poetik asarlarini tadqiq etish va ommalashtirishga katta ahamiyat berishgan. Nasriy asarlar taqdiri bir oz o'zgachadir. She'riy asarlar qo'lyozmasi nasriy asarlarga nisbatan bizgacha ko'proq yetib kelgan va saqlangan. To'la ishonch bilan aytish mumkinki, hozirgi zamon fors nasri fors-tojik klassik adabiyoti an'alarini ko'p jihatdan o'zida mujassamlashtirgan va singdirgan. Shuning uchun, fors adabiyotining g'oyasi – ezgulik va yovuzlik kurashi bugungi fors nasrining ham asosiy mavzusi hisoblanadi. Bu adabiy-badiiy vorislik va o'zaro aloqani mavzu tanlashda yoki munozara, afsona, safarnoma kabi janr shakllaridan foydalanishda ko'rish mumkin.

XIX asrda Eron adabiyotida she'riyatning gullab yashnaganligi izoh talab qilmaydi, ammo shu bilan birga,

nasr ham davr talabidan orqada qolmaganligini mashhur sharqshunos E. Bertels, S. Braginskiy, Eron olimi va shoiri Malikushshuaro Bahor, Kotibiy, nemis olimi Gyote, tojik olimi Yu. Salimov o'z ilmiy risolalarida qayd etishgan.

Kalit so'zlar: Forsiy adabiyot, nasr, badiiy timsol, shoir, janr, tahlil, asar, til.

Аннотация. В данной статье предпринята попытка изучения и анализа творчества поэтессы Маликушшуаро Бахар, известного деятеля персидской литературы XIX века. Цель статьи — изучить идейно-художественный метод в произведениях творцов XIX века, а также определить его место в истории персидско-таджикской литературы путем анализа прозаических произведений данного периода.

Различие между поэзией и прозой всегда было вполне осознаваемым в персидской литературе, при этом почётное место занимала поэзия. Вот почему в древней и средневековой персидско-таджикской литературе можно услышать мнение о превосходстве поэзии над прозой. Действительно, персидско-таджикская классическая литература, прежде всего, своими поэтическими произведениями, богатыми духовными идеями, заняла достойное место в сокровищнице мировой культуры. Произведения Фирдоуси, Хайяма, Саади, Хафиза сохранили свою красоту на протяжении многих веков. Основной причиной этого являются достоинства их работ, такие как нежность, близость к народу, гуманизм, восточная добродетель и мудрость. Персидско-таджикская поэзия XIX вв. достигла высочайшего уровня не только по форме и содержанию, но и по художественности. По этой причине иранские ученые придавали большое значение исследованию и популяризации поэтических произведений того времени. Судьба прозаических произведений несколько иная. Рукописи поэтических произведений сохранились и дошли до нас в большем количестве, чем прозаические произведения. Можно с уверенностью сказать, что современная персидская проза во многих аспектах впитала и внедрила традиции персидско-таджикской классической литературы. Поэтому идея персидской литературы, т.е. борьба добра и зла, является главной темой и сегодняшней персидской прозы. Эту литературно-художественную преемственность и взаимосвязь можно увидеть в выборе темы или в использовании жанровых форм. Произведения авторов этого периода отличаются сложностью языка и композиционной техники, оригинальностью и многообразием тем, присутствием персидских архаизмов и, в то же время, большим объемом заимствований из других восточных языков.

Безусловно, расцвет поэзии иранской литературы приходится на XIX вв. В то же время известные востоковеды Э. Бертельс, С. Брагинский, иранский ученый и поэтесса Маликушшуаро Бахар, Котиби, немецкий ученый Гете, таджикский ученый Ю. Салимов утверждают, что проза этого периода не отставала от требований времени.

Ключевые слова: Персидская литература, поэтика, образ, поэт, жанр, анализ, произведение, язык.

Annotation. In this article, an attempt was made to study and analyze the works of poetess Malikushshuaro Bahar, a well-known figure of 19th century Persian literature. The purpose of the article is to study the ideological and artistic style in the work of literature by analyzing the prose works of this period.

Usually, when speaking about Persian-Tajik classical literature, only poetry is mentioned, and prose is somewhat forgotten. That is why in the ancient and medieval Persian-Tajik literature one can hear the opinion about the superiority of verse over prose. Indeed, the Persian-Tajik classical literature, first of all, with its poetic works, rich in spiritual ideas, has taken a worthy place in the treasury of world culture. The works of Ferdowsi, Khayyam, Saadi, Hafiz have retained their beautiful freshness over the centuries. The main reason for this is the virtues of their work, such as refinement, nationalism, humanism, oriental virtue and wisdom. Persian-Tajik poetry of the IX-XV centuries reached the highest level not only in form and content, but also in artistry. For this reason, Iranian scholars attached great importance to the study and popularization of the poetic works of that time. The fate of prose works is somewhat different. Manuscripts of poetic works have come down to us more than prose works, and have been preserved. It can be said with confidence that modern Persian prose has largely embodied and assimilated the traditions of Persian-Tajik classical literature. Therefore, the idea of Persian literature - the struggle between good and evil - is the main theme of today's Persian prose. This literary-artistic continuity and interaction can be seen in the choice of theme or in the use of genre forms such as discussion, legend, travelogue.

The heyday of poetry in Iranian literature of the 9th-11th centuries does not require explanation, but at the same time, well-known orientologists E. Bertels, S. Braginsky, Iranian scientist and poet Malikushshuaro Bahar, Kotibi, German scientist Goethe, Tajik scientist Yu. Salimov noted in their scientific treatises.

Key words: Persian literature, image, poetry, poet, genre, analysis, work, language.

KIRISH

Mirza Muhammad Tag'i Bahor 1886-yilning 29-dekabrida fors she'riyatining beshigi va markazi bo'lgan Xurosonning katta shaharlaridan biri Mashhadda tug'ildi.

Bahorning otasi Saburiy ham o'z zamonining mashhur shoiri Visol avlodidan bo'lib, Mashhaddagi imom Rizo maqbarasining shoiri sifatida shuhrat qozongan va malikushshuaro unvonini olishga muvaffaq bo'lgan edi.

Bahor mana shu oilada she'riyat va adab muhiti-da o'sdi. Bahorning otasi unga yaxshi bilim berishga

harakat qilar ekan, eng avvalo o'z qo'l ostida unga fors adabiyoti va she'r ilmini, aruz va qofiya ilmini o'rgatdi. Bu uning yoshligidanoq she'rxon bo'lib o'sishiga, badiiy zavqining tarbiyalanishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari, Bahor o'z otasidan o'sha davr maktablarida o'qitiladigan boshqa fanlarni ham o'rgandi.

1903-yilda Bahorning otasi vafot etdi. Otadan yosh yetim qolgan Muhammad Tag'i o'z davrining yetuk olimi, faylasuf shoir, adib Nishoburiy va mashhadlik faylasuf, matematik Abdurahmon Badriylar qo'lida tahsil olgan.

Bahor keyinchalik o'z ota-onasi haqida yozar ekan, otasi ancha asabiylar va talabchan bo'lganligini, onasi esa yumshoq tabiat va mehribon bo'lib, ular doim juda inoq yashaganliklarini alohida qayd qilgan. U odobli va mehnatkash oilada o'sdi.

Bahor o'z avtobiografiyasida juda o'ychan, ko'p o'qib, ko'p yozadigan, ammo kamgap bo'lib o'sganligini, ko'p kishilarga yoqqan narsalar unga yoqmasligini, o'z oila a'zolariga, do'stlariga nisbatan muhabbati samimiy ekanligi haqida, xassos dilida hech kimda ko'rilmagan his-tuyg'ular tug'yon qilganligi haqida yozadi. Bu sifatlar keyinchalik mavjud tuzumdan norozi bo'lishga va goh aktiv, goh passiv kurashda turli ko'rinishlarda namoyon bo'ldi.

Bahor yosh yetim qolar ekan, uning otasining shuhrati va malikushshuaro unvoni meros bo'lib qoldi. Ammo shu bilan birga, katta o'g'il sifatida oilani boqish tashvishi ham 18 yoshli o'spirin yigit bo'yniga tushadi. Bahor endi tinmay mehnat qilishi, o'qib o'rganishiga to'g'ri keldi. U arab tilini yana qayta chuqur o'rganishga kirishdi. Misr gazeta va jurnallarini muntazam o'qib, ular orqali Yevropa madaniyati, Angliya, Fransiya, Germaniya va boshqa davlatlarda bo'layotgan yangiliklar bilan ham tanishib boradi. Keyinchalik ilmiy ish qilish maqsadida pahlaviy tilini ham o'rganadi.

USLUBLAR

Bahorning otasi uning shoirlik iste'dodini e'tirof etsa-da, "endi zamon o'zgardi, shoirlik va ilmu hikmat qadriga hech kim yetmaydi" deb o'g'lini savdogar bo'lishga undar edi. Ammo Bahor ko'p qiyinchiliklar ko'rganida ham she'riyatdan qaytmadi.

Bahor noma'lum bir shoir nomidan yozgan avtobiografik ocherkida: "Tasavvur qilaylikki, Xudo shoirni yaratganda uning qalbiga hech narsa solmadi, keyin shoir o'rnidan turgach, Xudo uni nuqsonli ko'rdi, shunda uning dili shikasta bo'lmasin, hayotga bir qadar hozir bo'lsin va tasalli olib tursin uchun unga bir hadya berdi. Va u hadya yolg'iz she'r iste'dodi edi..." – deb yozgan edi.

NATIJA

Shoir va jangchi Bahor bu haqda سکوت شب
 (“Kecha sukuti”) nomli asarida ham Mas’ud Sa’d
 Salmondan tazmin qilib deydi:

Holimga yarashiq keltiray bir bayt,
 Uni demish baland ta’bli Sa’d Salmon.
 Gardun o’ldirardi qiynoqda meni,
 Hamdamim bo’lmas bu nazmi jonon.

Darhaqiqat, Bahorning ko’p qiyinchiliklar ko’rgan
 hayotida yolg’iz ovituvchisi ham, kurash quroli ham
 she’riyat bo’ldi.

Bahorning qizi Moh Malik xonim پدرم بهار (“Otam
 Bahor”) degan maqolasida otasining yoshlikdan juda
 ko’p qiyinchilik ko’rganligini yozib: “Toqat bilib
 bo’lmaydigan og’ir mehnat, kam ish haqi, uning yo’liga
 intizor turgan oila, oliy himmatlik va baland ta’b otamning
 yoshlik yillaridan, hayotining boshidanoq hassos va
 chidamli qilib yetishtirdi. Shu vaqtdan boshlab umr
 o’tkazish yo’lida tortgan mashaqqat va qiyinchiliklari
 ta’sirida otam zulm, zo’rlilik va qashshoqlikka qarshi
 kurash yo’lini tanlab olishga qaror bergan edi. Uni hech
 kim hech narsa bu yo’ldan qaytarolmasdi.” – deydi. Bu
 haqda Bahorning o’zi ham “Baxtdan shikoyat” she’rida:

غم زمانه بسختی گرفته دامانم
 ز بیوفایی این بخت سست پیامانم
 به بسته بود بمن بخت این چنین میثاق
 که من بخوابم و او خود بود نگهبانم
 کنون بخته مرا بخت و من چو مشاقان
 نشسته بر سر اولای لای میخوانم
 چو بخت شوم مرا چرخ ببند اندر خواب
 بروی غم، غم دیگر نهد فراوانم

Mazmuni:

Zamona g’ami etagimni qattiq ushlab olgan,
 Men uxlaymanu, u mening soqchim buladi.
 Endi mening baxtim uyquda-yu, men unga
 mushtoqlardek,
 Uning boshida o’tirib, alla aytaman.
 Charx mening shum baxtim uyquga botganini
 ko’rib,
 G’amim ustiga yana bisyor g’am keltiradi, -
 deydi.

Malikushshuaro Bahor hali yosh bo’lishiga
 qaramay, urf va marosimlarda qatnashardi. Bu uning
 uchun o’ziga xos mushoira ham edi. Bu musobaqada
 Bahordan o’tolmagan raqiblari uning ustidan shikoyat
 qo’zg’ab, o’z davrining o’qiishli shahzodalaridan
 bo’lgan Xuroson valisi yoniga borishdi va bu yosh

yigit malikushshuaro unvoniga loyiq emas, uning
 o’qib yurgan qasidalari otasidan qolgan, deyishdi.
 Vali sinov o’tkazishga qaror qildi. Shoir vali tomonidan
 tayinlangan eng qiyin vaznlardan birida qasida yozishi
 kerak edi. Bahor bu sinovdan ham muvaffaqiyatli o’tdi.
 Bu vaqtda endigina 21 yoshga chiqqan Bahor qasidalari
 eshituvchilarga ma’qul bo’la boshladi. Mazkur qasida
 shunday boshlanar edi:

Tunning ikki yarmi o’tib ketgan chog’,
 Sodda kishi keldi, nuqra nur, chiroq.
 Chehrasi quyoshli, kunduzdek ravshan,
 Tun kabi tim qora sochlari biroq.
 Tepamga o’tirib menga pichirlar
 “Tup haqiqiy shoir, turgil ertaroq!”

Qasida yuqori baho oldi, ammo Bahorning raqiblari
 buni ehtimol boshqa bir kishi yozib bergandir, onasi
 yozib bergan bo’lishi ham mumkin, uni fil bodiha (hech
 qanday tayyorgarliksiz, qo’qqisdan she’r aytish) she’r
 aytirib sinab ko’rish kerak, deyishdi.

Bahorni yana imtihon qilishadi. Unga mazmunan
 bir-biridan uzoq bo’lgan tasbeh, chirog’, tuz va chinor
 so’zlarini aytib, shularni to’rt misrada keltirib ruboiy
 yozishini talab etadilar. Shu oniyoy shoir quyidagi
 ruboiyni o’qiydi:

Xirqamda tasbeh-la ko’rib, dedi yor:
 “Zuhd chirog’i qilmish quyosh oshkor”.
 Tuz kondan shirinlik topganmi hech kim,
 Kimga meva in’om etibdir chinor?!

Shuningdek, boshqa berilgan so’zlarga ham
 hozirjavoblik bilan yana uchta ruboiy to’qib bergan
 shoir eng qiyin imtihondan muvaffaqiyatli o’tadi. Ammo
 biz yuqoridagi qasidaga qaytamiz.

Keltirilgan misralarda Bahor o’z poetik iste’dodini
 ko’rsatadi va uni tezroq namoyon qilish lozim ekanligini
 tushunadi. Bu iste’dod o’z jabhasini topolmagani
 uchungina kul tagida cho’g’dek mudrab yotmoqda edi.
 Bu cho’g’ni alangalatgan shamol tez orada Eronga esa
 boshladi.

Bahor o’n yoshga to’lgan yili – 1896-yil 1-may
 kuni Nasriddin shoh o’ldirilgan edi. Uning o’rniga o’g’li
 Muzaffariddin taxtga o’tirdi. Mamlakatning iqtisodiy
 vaziyati yomonlashsa yomonlashdiki, yaxshilanmadi.
 Muzaffariddin o’zining Yevropa safarlari uchun Angliya
 va Chor Rossiyasidan ko’plab qarz ola boshladi. Bu
 davrda mamlakat janubidagi neftlar inglizlar qo’lida edi.
 Endilikda bojxonadan, pochta va telegrafdan keladigan
 mablag’lar ham chet el “bosqinchi”lari cho’ntagiga

tushadigan bo'ldi. Umuman olganda mamlakatda qo'zg'olon kayfiyati pishib borayotgan edi.

Bu davr Malikushshuaro Bahorning ijodiy shakllanish yillari bo'ldi. U ijtimoiy hayotda faol qatnashib, turmush maktabini o'ta boshladi. Mamlakatdagi qo'zg'olon harakatlari 1905-yilda boshlanib, 1911-yilgacha uzluksiz davom etdi.

Eron xalqi uyg'ona boshladi. Bu uyg'onish albatta adabiyotda ham o'z aksini topdi. Agar fors adabiyotining ming yillik tarixida adabiyot asosan shohlar saroyida rivojlangan bo'lsa, endi qo'zg'olon davrida shoirlar bunday siyosiy voqealardan chetda qolmadilar.

Eron xalqi tarixidagi eng buyuk inqilobiy harakat to'liqlari Xurosonga borib yetganida Bahor malikushshuaro unvoni uchun imtihonlardan endi o'tib, nomi chiqib kelayotgan yosh shoir edi. Bahor o'qish davridayoq she'rlar yoza boshlaydi va tez kunda xalq ichida tanilgan shoir bo'lib yetishadi. Lekin Bahor haqiqiy shuhratini 1906-1911-yillardagi Eron qo'zg'oloni davrida, aniqrog'i konstitutsiya uchun kurash davrida topdi.

Buyuk tarixiy harakat ta'siri natijasida qo'zg'olongacha asosan saroy adabiyotidan iborat bo'lgan eron adabiyotida ham insonparvarlik ohanglari jaranglay boshladi.

MUHOKAMA

Bahor o'z ijodida Turkiston uslubiga tayandi, uni rivojlantirdi va yangi mazmun, yangi shakllar, yangi badiiy ifoda vositalari bilan boyitdi. Bahor estetikasining asosiy prinsiplari xalq hayotini to'raligicha aks ettirishga harakat qilish, uni ta'riflashda soddalikka intilish, xalq diliga tezroq va ta'sirchanroq kirib boradigan badiiy ifoda vositalarini izlash bo'ldi.

Malikushshuaro Bahor fors she'ri taraqqiyoti tarixini o'zining soddaligi, tarovati va teranligi bilan ajralib turgan Rudakiylar, Firdavsiylar, Sa'diy va Xofizlar davri poeziyasining, ya'ni Turkiston va Iroq uslublarining eng yaxshi tomonlarini ajratib ko'rsatdi, chuqur o'rgandi, ulardan ijodiy foydalandi.

Bahor klassik davrda ishlanib voyaga yetkazilgan va fors adabiyotining ming yillik tarixida o'z o'rniga ega bo'lib, ancha turg'unlik kasb etgan hamma turlarda ijod etdi. Uning ijodidan qasida, g'azal, qit'a, ruboiy, masnaviy, tarje'band, mustahzod va boshqa shakllarning barchasida yetuk asarlar namunasini topa olamiz.

Qasida janri fors adabiyotining keyingi davrlarida formalizmga qattiq muhtalo bo'lgan, XIV - XV asrdan boshlab sun'iy qasidalar paydo bo'lgan, ularda mazmun

ikkinchi darajali narsa bo'lib, so'nib qolgan edi. Bahor XX asrda o'z talanti bilan qasida janrini jonlantira oldi. Uni yangi mazmunlar bilan boyitdi, ko'p asrlardan beri qotib qolgan bu jonsiz davr nafasini ufurishga muvaffaq bo'la oldi.

Bahor qasida janriga ko'p ahamiyat berdi. Shoirning qasidaga bunchalik o'chligi yoshligidanoq Mashhad ziyoratgohining maddohi vazifasidagi otasining ta'siri va uzining ham shu ziyoratgohlar malikushshuaro vazifasiga tayyorlanib, mushoira va sinovlardan utishi bo'lsa kerak. Ulug' shoir qasidaning bu an'anaviy vazifasidan chekinib, xalq kurashchilarini madh etuvchi, ularning g'alabasini vasf etuvchi va boshqa zamonaviy mavzularda qasidalar yozdi. Shu bilan birga Bahor fors she'riyatining asrlar bo'yi qotib, adabiyot uchun torlik qilib qolgan shakllarni chuqurroq o'rganib, yangi imkoniyatlarini ochishga va unga ba'zi yangiliklar kiritib bu imkoniyatlarni kengaytirishga harakat qildi hamda bir qancha muvaffaqiyatlarga erishdi.

Eronda ikkinchi jahon urushidan keyin eron xalqining mustaqillik va tinchlik uchun olib borgan kurashi kizib ketdi. Bu qaxramonona kurash natijasida inglizlar eron neftini eron xalqining o'z qo'lga qaytarib berishga majbur bo'ldilar.

Eron xalqi iqtisodiy va siyosiy mustaqillik, tinchlik uchun kurashda bir qator muvaffaqiyatlarga erishdi. Kahramonona kurashni va ozodlik goyalarini kuylovchi shoirlar orasida, ayniqsa, yoshlar orasida yangi mazmun uchun yangi shakllar izlash kuchayib ketdi. Aruz asosida yangi vaznlar, barmoq vaznda she'rlar, yevropa xalqlari poeziyasida mavjud usullarda qofiyalash kabi hollar uchray boshladi. Keyinchalik yangi she'r deb atalgan yangi usul boshlandi. Eski va yangi she'r tarafdorlari orasida qattiq tortishuvlar, muzokara va munozaralar avj oldi. Bu munozaralar eron yozuvchilarining birinchi kongressida ham davom etdi.

Bahor mumtoz shakl tarafdori edi, ammo u mumtoz shaklga yetishib olgan va uning hech bir yerini uzgartirish mumkin emas deyigan fikri yo'q edi.

Bu esa Bahor estetikasining muhim tomonlaridan biri. Malikushshuaro Bahor 1918-yilda chiqargan "Donishkade" jurnalining vazifalarini belgilab yozgan bosh maqolasida ham yangi nazm uchun kurash lozim ta'kidlaydi, klassiklarni chuqur o'rganib, ularning yuksak uslubini rivojlantirish, yangi zamonaviy shakllar ixtiro qilish yo'lida izlanish haqida gapiradi hamda eng asosiy vazifa «yoshlik ruxi» va ozod fikr uchun kurash ekanligini ko'rsatgan edi.

Eron yozuvchilarining 1 Kongressida bu masalada bo'lgan munozaralarga yakun yasas ekan aruz she'rining qadim eron she'riyatida mavjud bo'lgan hijo she'ridan kelib chiqqanligini ko'rsatib o'tdi, xijo she'rini poeziya

taraqqiyotida allaqachon bosib o'tilgan yo'l deb baholadi, sochma she'rni esa saj bilan tenglashtirdi va uning porloq namunasini Sa'diy yaratgan edi. Uni badiiy nasr deb atadi. Bahor izlanishlarga chek qo'yish va yangi she'rga butunlay qarshi bo'lgan kishilarga ham qo'shilmadi.

Uslubshunoslik haqidagi kitoblarda bayon etgan she'r va she'riy shakllarni, badiiy uslublarni zamon yaratadi degan fikrini yana quvvatlab davom ettirdi va zamonning o'zi eng yaxshi qozi degan ma'noda: «Shuning bilan birga, biz shoirlarga, klassiklarga ergashishni man qilmaymiz, ularni oq (qofiyasiz) va vaznsiz she'rlar yozishdan ham to'xtatmaymiz. Biz ularga erkinlik berib kuyishimiz kerak, toki ular hunarlarini namoyish qilsinlar.

Biz nasr va nazmda ilgari borishimiz va yangi intilishlarni taqdirlashimiz kerak.... xalqning o'zi yaxshi san'atni yomonidan ajratib oladi va nixoyat, til va tafakkur ozodligi, nashr erkinligining o'zi kelajakda yosh yozuvchilar va shoirlarga yo'l ochib beradi», (*Chaykin K., 1928 : 112*). Uning fikricha, nazm taraqqiyotini xayotdan ajralgan, mavhum yoki faqat o'tmishga asoslangan nazariy qoidalargina emas, xayotning o'zi va shoirlarning fikr erkinligi, so'z va nashr erkinligi belgilaydi.

Bahorning bu fikrlari diqqatga sazovor, albatta. Poeziyaning yaxshi yomonini esa xalqning uzi tanlab oladi. Shuning uchun ham kongressning Bahor taklifi bilan qabul qilingan qarorida shunday modda bor:

«Kongress shoirlar va yozuvchilar xalqqa yuz o'giradilar, haddi siqqan darajada bugungi kun ohangiga muvofiq keladigan, muloyim uslub va usullar qidirishga kirishadilar, ulug' adabiyot yaratish omillaridan bo'lgan sog'lom va ilmiy tanqidchilikni rivojlantiradilar deb umid qiladi» (*Chaykin K., 1928: 303*).

She'r manbai osmonda emas, yerda ekaniga Bahorning imoni komil. Bahor estetikasining asosi ham shunda. Ammo she'r nima, uning vazifasi va sifati qanday belgilanadi? Vazniga solinib qofiyalangan so'zlarda ifoda etilgan har qanday fikr ham she'r bo'ladimi?

Bahor nazm ipiga terilgan so'zlarning hammasini ham she'r deb atab bo'lmaydi degan fikrni maydonga tashlaydi. U nazm va she'r, nozim va shoir so'zlarini ham kamol nozik tomonlaridan foydalanib bu so'zlarning istilohiy ma'nolarini farqlaydi. Uning fikricha, ma'lum bir tartibga solingan har qanday kalom she'r bulolmaydi. Bu ishni bajargan nozim - tartiblovchi ham shoir bulolmaydi: Bahor «She'r va nazm» degan she'rida buni shunday ifodalaydi:

She'r nedur bilsang, u gavhar aql daryosidan,
Shoir afsungar erur dur terguchi a'losidan. –
San'atu kofiya ham saj nazmdirku she'r emas,
Qanchalab nozimni ko'rdim nazmi sust
paydosidan.

She'r dildan qo'zg'alur, so'ng labda qaynab jo'sh urar.

Qayta dillarga o'tirgay u quloq ma'vosidan.
Umrida nazm etmagan shoir juda ko'p uchragay,
Umrida she'r etmagan nozim ko'p o'z da'vosidan.

Demak, Sharqda ham shoir inson qadimdan his-tuyg'u muhtalosi sifatida talqin etiladi. Malikushshuaro ham shu fikrda, uning yuqoridagi keltirilgan she'ridan ochiq ko'rinib turibdiki, Bahor badiiy adabiyotda, xususan she'riyatda asosiy o'rinni his-tuyg'u egallashi lozim ekanligini ta'kidlaydi.

Ulug san'atkor san'atning fikr tashuvchilik faoliyati haqida gapirmasa ham, ammo uni inkor qilayotgani y, albatta, bunga uning chuqur tarixiy mazmundor asarlari guvoh, lekin u san'at ta'rifida his-tuyg'uni ifoda etish vazifasini birinchi o'ringa qo'ymoqda.

Malikushshuaro Bahor ham huddi shunday fikrda. Shuning uchun ham u har qanday nazm she'r bo'lavermaydi deb ilmiy maqolalarida ham, she'riy asarlarida ham ta'kidladi.

Shuningdek, u she'r texnikasiga va badiiy ifoda vositalariga juda katta ahamiyat berdi. Chunki yuqorida L. Tolstoy aytganidek, his-tuyg'uni boshqalarga yetkazib beruvchi vositalar shu badiiy vositalar ekanligini u olim sifatida yaxshi tushunar va shoirona his qilar edi.

Shuning uchun ham biz Bahor ijodida klassik badiiy vositalardan mohirona foydalanilganligini, ular rivojlantirilganligi va yangilari bilan to'ldirilib boyitilganligini ko'ramiz. Bahor juda yoshlik chog'idan klassik adabiyotda kamolga yetkazilgan badiiy ifoda vositalarini, she'r texnikasini chuqur o'rgangan. Bu san'atni u yangi bir she'riy maydonda saroydan chiqib, xalq orasiga dadil qadam qo'ygan XX asr she'riyatida mohirona ishlatdi va rivojlantirdi. Bahor uslubi juda murakkab, u nazirago'ylik va taqlidchilikdan boshlanib, XX asr eron poeziyasida chuqur iz qoldirgan mustaqil uslub darajasiga ko'tarilgani uchun uni o'rganishning ahamiyati juda kattadir. Bahor klassik adabiyot taraqqiyoti bosib o'tgan hamma uslublarni chuqur o'rgangan, ularning nazokat va malohatini egallagan, ishlatib ko'rgan va shuning bilan birga, o'z zamonasi nafasini elta oluvchi uslub qidirgan shoir.

Hayotida ko'p qiyinchiliklar ko'rib, erk va ozodlik haqida ko'p o'ylab, mulohaza yuritib kelgan Bahor o'z o'rni qo'zg'olonchilar orasida ekanini tez payqab oldi.

Inqilobiy harakatlarda faol qatnasha boshladi. Shoirning bu kabi ruhiyatini quyidagi to'rtliklarida uchratish mumkin:

Podshoh bilan erk haqida so'z yuritmoq xatodir,
Eron yori Xudodir,
Shoh mazhabi biznikidan begonadir, judodir
Eron yori Xudodir,
Shoh mastu, mir mastu, shayx mastu, shahriyor
Ketdiku qo'ldan diyor.
Bunday rasvo mastlikdan har tomonda g'avg'odir
Eron yori Xudodir.

Ushbu she'r tez orada keng tarqalib, Bahorga shuhrat keltirgan edi. Bahor diniy g'oyalardan ozod bo'lib, butkul materialistik pozitsiyaga o'tib olmagan bo'lsa-da, uning ijodida zulmkor tuzumga qarshi motivlar paydo bo'la boshlagani ko'rinadi, ana shundan boshlab Bahorning ko'pgina qasida va tasniflari xalq orasida keng yoyildi. Shoirning o'zi ham inqilobiy harakatlarda faol qatnashadi va mahalliy inqilobchilar guruhining a'zosi bo'lib saylanadi. U bir guruh hamfikrlari bilan "Xuroson" nomli yashirin gazeta chiqaradi.

TAHLIL

Eron nasrida o'sha vaqtda eng ko'p tarqalgan janrlardan biri "vataniya" edi. Bu janrda yozilgan she'rlar o'quvchida vatanparvarlik, xalqparvarlik, inqilobiy tuyg'ularni uyg'otar edi. Bahor "vataniya" janrining ilg'or namoyandaligidan biri bo'lib qoladi.

Bahor faqat qalam bilangina emas, balki shaxsan o'zi ham kurashlarda qatnashadi. 1908-yilda Bahor Zakavkaziyening ilg'or fikrli kishilari bilan bog'liq bo'lgan "Saodat" degan yashirin tashkilotining ham a'zosi edi. Shu yilning o'zida "Nav Bahor" gazetasini chiqara boshladi. Ammo gazeta imperialistlarga qarshi maqolalar bosganligi uchun 1911-yildayoq chor Rossiyasining Tehrondagi elchixonasining tazyiqi bilan yopiladi. Shundan so'ng shoirni Mashhaddan chiqib ketishga majbur qilinadi.

XULOSA

Bahor faoliyatiga chuqurroq nazar tashlar ekanmiz, siyosiy-jurnalistik faoliyatining aktivlashganligi, uning bu voqealarga, umuman, ijobiy qaraganidan, hatto eng yaqin qo'shni mamlakatdagi qo'zg'olondan o'z xalqi bilan birga ruhlangan degan xulosaga ham kelishimiz mumkin. Oktyabr inqilobidan so'ng eron xalqining ozodlik uchun kurashida yangi davr boshlandi. Bu davrda malikushshuaro Bahor ham o'z siyosiy faoliyatini

qizitib yubordi. Ta'qiqlangan gazetasini qaytadan nashr eta boshladi. Gazeta sahifalarida ingliz bosqinchilariga va o'z vatanini ularning oyog'i ostiga tashlab qo'ygan hiyonatkor siyosatchilarga qarshi maqolalar, she'rlar bilan chiqdi. Bu esa gazetaning yana yopilishiga sabab bo'ldi. Bunga javoban Bahor:

Toki Rey ustida javlonman,
Shikastayu, g'amginu, nolonman...

deb boshlanuvchi mashhur qasidasini yozdi. Ingliz bosqinchilariga qarshi o'tkir til bilan yozilgan, vatanparvarlik tuyg'ulari bilan sug'orilgan ba asar eron xalqining eng sevimli she'rlaridan biri bo'lib qoldi. Bu she'r so'nggi yillarda "Payyomi nav" jurnalining 1947-yil 11-12 sonlarida qayta bosilib chiqdi.

1918-1919 yillarda Bahor "Doneshkade" ("Bilimxona") nomli tarixiy adabiy jurnal nashr qildi. Jurnal 1915-yilda paydo bo'lgan "Doneshkade" adabiy anjuman to'plami edi. Bu anjumanda o'sha davrda o'z ijodini inqilobga bag'ishlagan, keyinchalik katta yozuvchi, olim bo'lib tanilgan kishilardan Abbos Iqbol Oshtioniy, Said Nafisiy, Rashid Yosimiy kabilar ishtirok etishar edi. Mazkur jamiyat adabiyotni yangilashga, umuman adabiyotda fuqarolik motivlarini o'ziga xos tarzda rivojlantirish, mazmun va shaklga o'zgarishlar kiritishda muhim ahamiyat kasb etdi. "Doneshkade" jurnali sodda va aniq xalq tili uchun kurashdi. Jurnalning birinchi soni 1918-yil aprelida chiqdi. Unga Bahor tomonidan yozilgan so'z boshi ام دالم (Bizning maqsad) deb atalar edi. Unda muallif dunyoda hamma narsa o'zgaruvchanligini ta'kidlab, adabiyot ham o'zgarishini aytadi va asosiy maqsad yangilanish ekanini uqtiradi. Ammo an'anaga tayanib, mumtoz adabiyot vakillari ishlab chiqqan uslubga asoslanib, yangi davr talablari va fors tili xususiyatlarini hisobga olib, yangi usul va uslublar, yangi yo'nalishtirish ishlab chiqish vazifasini qo'ydi. Jurnalda mumtoz asarlardan namunalar, yangi she'r va hikoyalar, adabiyotshunoslarning tadqiqotlari va jahon adabiyoti durdonalaridan tarjimalar chiqib turdi.

Biroq 1920-1921-yillarda Bahor ijodida yana bir o'zgarish ro'y beradi. U o'z g'oyasi – eron xalqining ozodligi uchun kurashdan qaytgandek bo'ladi. Bu yillarda Bahor Eronda birdan bir yopilmay qolgan gazeta, hukumatning rasmiy organi – "Eron" gazetasi redaksiyasida boshliq bo'lib ishlab, ingliz g'oyalarini ilgari surgan Vosiquddavlani maqtab she'rlar yozadi. Keyinchalik bu ishidan o'zi ham or qiladi. Bu davrdagi she'rlarini devoniga ham kiritmaydi. Uning hokim sinflar bilan kelishuvi, ilgarigi xatolari bilan uzviy bog'langan edi. Bahor ozodlik uchun kurashga eron

xalqi qobil ekanligiga ishonchini yo‘qotadi. U eron xalqining qator qo‘zg‘olon harakatlarida xalqning umidsizlikka tushayotganligini ko‘rib kurashdan orqaga chekina boshlaydi.

Bahorning 1920-21-yillardagi ijodi o‘z xalqiga ishonchsizlik va chuqur umidsizlik tuyg‘ulari bilan to‘la. Bu esa shoirning katta ruhiy kechinmalaridan chuqur izlanishlaridan darak berardi. O‘zining voqealarga boy jo‘shqin hayotida o‘z xalqi uchun taraqqiyot yo‘lini izlagan shoir umrining oxirida:

“Hayotimning qirq yili ijtimoiy-siyosiy va adabiy sohasidagi faoliyatda o‘tdi. Mening fikr-o‘ylarim hamma vaqt eron xalqining madaniyati va baxti uchun xizmat qilishga yo‘nalgan edi. Ba‘zan xatolarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsam-da, men uni o‘z ixtiyorim bilan qilganim yo‘q”, deb yozadi (*Parvin haqidagi maqolalar va she‘riy xotiralar*, 1944:6).

Ozodlik baxt yo‘lini ham, o‘z xalqining eng yaxshi do‘stini ham shoir umrining oxirida topdi. Ammo o‘lim uni tez orada hayotdan olib ketdi. Bahor hayotining so‘nggi yillarini sinchiklab o‘rganar ekanmiz, quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

Bahorning so‘nggi davrdagi ijodida tinchlik, vatanparvarlik mavzusi, xalqining hayoti, iqtisodi va madaniyati, salmoqli o‘rinni egallaydi. Bu hol tasodifiy yoki o‘tkinchi bir taassurot mevalari emas, balki kurashlarda toblangan, katta bir umrning hayotiy xulosasi, uning yakuni edi.

1951-yil 21-aprelda Malikushshuaro Bahor vafot etdi. Bu eron xalqi, eron adabiyoti uchun katta yo‘qotish edi. Ulkan shoir va jamoat arbobini dafn etish marosimi katta xalq namoyishiga aylanib ketdi.

Adibning jasadi o‘zining iltimosiga binoan, Tehron shimolidagi tog‘lar etagida joylashgan darveshlar qabristoniga qo‘yilgan. Bu yerda tasavvuf shoirlari bilan birga Iroj Mirzo, Rashid Yosimiy kabi Bahor zamondoshlari hoki ham bor.

Bahorning mozori ustiga katta ayvonli marmar maqbara qurilgan. Maqbara peshtoqiga shoirning quyidagi ruboiysi yozilgan:

O‘zgalar deb umr so‘ngiga yetdik,
Xalq chuqur uyquda biz tashvish etdik.
Nigoron ko‘z bilan oxir Vatanni
Oldi-qochdilarga topshirib ketdik.

ADABIYOTLAR:

1. Адабиёт назарияси. (1978) Икки жилдлик. I жилд. –Т.: Фан, 1978. –18 б.
2. Адабиёт назарияси. (1979) Икки жилдлик. II жилд. – Т.: Фан, 1979.– 449 б.

3. Адабий турлар ва жанрлар (1992). Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. –Т.: Фан, 1992. – 247 б.

4. Бертельс Е.Э. (1988) История литературы и культуры Ирана. –М.: Наука, 1988. –559 б.

5. Имомназаров.М. (2013) X-XV асрлар. Форс мумтоз шеърляри (Даврлаштириш муаммолари. Адабиётнинг мустақил маънавий моҳиятининг шаклланиши). – Т., 2013. – Б. 310.

6. Иззат Султон. (1989) Адабиёт назарияси . –Т.: Ўқитувчи, 1989. -378 б.

7. Мухаммадризо Рўзбех. (2012) Ҳозирги замон Эрон адабиёти. –Т., 2012.

8. Мухаммадризо Рўзбех. (2009) Ҳозирги замон Эрон шеърляри: “янги шеър”нинг тарихий таҳлили. Сино // 2009 йил. –Б. 34-35-36.

9. Маллаев Н. (1976) Ўзбек адабиёти тарихи. Олий ўқув юртлари учун дарслик. 1-китоб. –Т.: Ўқитувчи, 1976. – 662 б.

10. Nizamova F. (2019) The history of studying Khusrav Dekhlavi’s work // The Light of Islam. – 2019. – Т., 2019. – №. 2. – С. 95-99.

11. Feruza, Nizamova (2019). Amir Khusrav’s literary heritage in applied art rituals // Theoretical & Applied Science. International Scientific Journal. Philadelphia, USA. 24.09.2019 –Pp. 189-195. <http://www.t-science.org/arxivDOI/2019/10-78/PDF/10-78-35.pdf>

12. Feruza, Nizamova (2020). Глобализация и литературный процесс // Актуальные вопросы современной науки. Международная научно-практическая конференция (20 августа 2020 г.) – Новосибирск, 2020. –С. 91-95.

13. Абу Али Ҳасан ибн Али Тусий Низомулмулк. (1091) Сиёсатнома.

14. Османов Н. (1974) Стиль персидско-таджикской поэзии IX–X вв. –М., 1974.

15. Османов Н. (1970). Тип, метод и стил персидской поэзии X в. // Ж. Народы Азии и Африки. –1970. – № 1. – 156 б.

16. Очилов Э. (2016) Рубоий таржимасида шакл ва мазмун бирлиги: фил. фан. номзоди дисс. Автореф. – Т., 1994. – 23 б.

17. Parvin E’tisomi. (2017) She’rlar. Jahon adabiyoti va madaniyati j-li. Mirza Kenjabek tarjimalari. – Т., 2017.

18. Парвин хақидаги мақолалар ва шеърӣ хотиралар. (1944) – Техрон, 1944. –Б. 6–7.

19. Пригарина Н.И. (1983) Образное содержание байта в поэзии на персидском языке / Восточная поэтика Специфика художественного образа. –М., 1983. –Б. 89–108.

20. Rubinchik Yu.A. (1963) tahriri ostida Persidsko-russkiy slovar. 2 tomlik -M., 1963.
21. Современная иранская проза. (2010) Антология иранского рассказа. Том I, II. СПб., 2010.
22. Сулаймонова Ф. (1997) Шарқ ва Ғарб. –Т.: Ўзбекистон, 1997.– 465 б.
23. Султон Иззат. (1986) Адабиёт назарияси. –Т.: Ўқитувчи, 1986. – 408 б.
24. Саид Нафисий (1323 х.). Парвин Эътисомий. Пайёме нон ж-ли. –№2. 1323 х.й. –Б. 99.
25. Turdiyeva O. (2015) Zamonaviy Eron hikoyanavisligi: monigrafiya. –T., 2015.
26. Turdiyeva O. (2020) Eron folklori: o'quv qo'llanma. –T., 2020.
27. Чайкин К. (1928) Краткий очерк новейшей персидской литературы. –М., 1928.
28. Шеърлар девони. (1956) 1-жилд. –Техрон, 1956. –Б.117.
29. Шеърлар девони. (1957) 2-жилд. –Техрон, 1957. –Б.481.
30. Шомухамедов Ш. (1963) Форс-тожик адабиёти классиклари. –Т.: Ўздабададабнашр, 1963. –99 б.
31. Шомухамедов Ш. (1968) Форс-тожик адабиёти классиклари ижодида гуманизм. –Т.: Фан, 1968. – 432 б.
32. Шомухамедов Ш. (1981) Хазиначилар жилоси. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 400 б.
33. Шомухамедов Ш. (2000) Жаҳонни мафтун этган адабиёт. –Т.: ТошДШИ, 2000. –140 б.
34. Шомухамедов Ш. (2003) Форсий шеърятнинг асосий шакллари. –Т.: ТошДШИ, 2003. –102 б.
35. Шомухамедов Ш. (2000) Жаҳонни мафтун этган адабиёт. –Т.: ТошДШИ, 2000. –140 б.
36. Курунов Д. (2007) Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Фан, 2007. – 226 б.
37. Ҳомидий Х., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. (1970) Адабиётшунослик терминлари луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1970.-299 б.
38. Qurinov D. (2010) Adabiyotshunoslik lug'ati. – Т.: Akademnashr, 2010. 173-b.
39. Эрон шоирлари. (1958) -Тошкент, 1958. –Б. 60-61.
40. Ян Рипка. (1970) История персидской и таджикской литературы. –М., 1970.
41. Шомухамедов Ш. (2000) Жаҳонни мафтун этган адабиёт. – Т.: ТДШИ, 2000. – 140 б.

XORIJY ADABIYOT:

- دانشنامه ادب فارسی. جلد اول. تهران ۱۳۸۰ ص ۱۰۴۱
- فرهنگنامه ادبی فارسی. تهران ۱۳۸۱ ص ۱۵۳۵۰
- سیروس شمیسا. سبکشناسی شعر. تهران ۱۳۸۲ ص ۲۳۸-۲۳۹
- رشید یاسمی. ادبیات معاصر. تهران
- سعید نفیسی. تاریخ مختصری ادبیات ایران. سالنامه

REFERENCES:

1. Adabiyot nazariyasi (1978). Ikki jildlik. I jild. –T.: Fan, 1978. –18 b.
2. Adabiyot nazariyasi (1979). Ikki jildlik. II jild. – T.: Fan, 1979. – 449 b.
3. Adabiy turlar va janrlar (1992). Uch jildlik. 2-jild. Lirika. –T.: Fan, 1992. – 247 b.
4. Бертельс Е.Э. (1988) История литературы и культуры Ирана. –М.: Наука, 1988. –559 б.
5. Imomnazarov.M. (2013) X-XV asrlar. Fors mumtoz she'riyati (Davrlashtirish muammolari. Adabiyotning mustaqil ma'naviy mohiyatining shakllanishi). – T., 2013. – B. 310.
6. Izzat Sulton. (1989) Adabiyot nazariyasi . –T.: O'qituvchi, 1989. -378 b.
7. Muhammadrizo Ruzbeh. (2012) Hozirgi zamon Eron adabiyoti. –T., 2012.
8. Muhammadrizo Ro'zbeh. (2009) Hozirgi zamon Eron she'riyati: "yangi she'r"ning tarixiy tahlili. Sino // 2009 yil. –B. 34-35-36.
9. Mallayev N. (1976) O'zbek adabiyoti tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. 1-kitob. –T.: O'qituvchi, 1976. – 662 b.
10. Nizamova F. (2019) The history of studying Khusrav Dekhlavi's work // The Light of Islam. – 2019. – T., 2019. – №. 2. – С. 95-99.
11. Feruza, Nizamova (2019). Amir Khusrav's literary heritage in applied art rituals // Theoretical & Applied Science. International Scientific Journal. Philadelphia, USA. 24.09.2019 –Pp. 189-195. <http://www.t-science.org/axivDOI/2019/10-78/PDF/10-78-35.pdf>
12. Feruza, Nizamova (2020). Глобализация и литературный процесс // Актуальные вопросы современной науки. Международная научно-практическая конференция (20 августа 2020 г.) – Новосибирск, 2020. –С. 91-95.
13. Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy Nizomulmulk. (1091) Siyosatnoma.
14. Османов Н. (1970). Тип, метод и стил персидской поэзии X в. // Ж. Народы Азии и Африки. –1970. – № 1. – 156 б.

15. Osmanov N. (1970). Tip, metod i stil persidskoy poezii X v. // J. Narody Azii i Afriki. –1970. – № 1. – 156 b.

16. Ochilov E. (2016) Ruboiy tarjimasida shakl va mazmun birligi: fil. fan. nomzodi diss. Avtoref. – T., 1994. – 23 b.

17. Parvin E'tisomi. (2017) She'rlar. Jahon adabiyoti va madaniyati j-li. Mirza Kenjabek tarjimalari. – T., 2017.

18. Parvin haqidagi maqolalar va she'riy xotiralar. (1944) – Tehron, 1944. –B. 6–7.

19. Пригарина Н.И. (1983) Образное содержание байта в поэзии на персидском языке / Восточная поэтика Специфика художественного образа. –М., 1983. –Б. 89–108.

20. Rubinchik Yu.A. (1963) tahriri ostida Persidsko-russkiy slovar. 2 tomlik -M., 1963.

21. Современная иранская проза. (2010) Антология иранского рассказа. Том I , II. СПб., 2010.

22. Sulaymonova F. (1997) Sharq va G'arb. –T.: O'zbekiston, 1997.– 465 b.

23. Sulton Izzat. (1986) Adabiyot nazariyasi. –T.: O'qituvchi, 1986. – 408 b.

24. Said Nafisiy (1323 h.). Parvin E'tisomiy. Payyome non j-li. –№2. 1323 h.y. -B. 99.

25. Turdiyeva O. (2015) Zamonaviy Eron hikoyanavisligi: monografiya. –T., 2015.

26. Turdiyeva O. (2020) Eron folklori: o'quv qo'llanma. –T., 2020.

27. Chaykin K. (1928) Kratkiy ocherk noveyshey persidskoy literatury. -M., 1928.

28. She'rlar devoni. (1956) 1-jild. -Tehron, 1956. -B.117.

29. She'rlar devoni. (1957) 2-jild. -Tehron, 1957. -B.481.

30. Shomuhamedov Sh. (1963) Fors-tojik adabiyoti klassiklari. –T.: O'zdamadadabnashr, 1963. –99 b.

31. Shomuhamedov Sh. (1968) Fors-tojik adabiyoti klassiklari ijodida gumanizm. –T.: Fan, 1968. – 432 b.

32. Shomuhamedov Sh. (1981) Xazinalar jilos. – T.: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. – 400 b.

33. Shomuhamedov Sh. (2000) Jahonni maftun etgan adabiyot. –T.: ToshDSHI, 2000. –140 b.

34. Shomuhamedov Sh. (2003) Forsiy she'riyatning asosiy shakllari. –T.: ToshDSHI, 2003. -102 b.

35. Shomuhamedov Sh. (2000) Jahonni maftun etgan adabiyot. –T.: ToshDSHI, 2000. –140 b.

36. Quronov D. (2007) Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Fan, 2007. – 226 b.

37. Homidiy X., Abdullayeva Sh., Ibroximova S. (1970) Adabiyotshunoslik terminlari lugati. – T.: O'qituvchi, 1970. -299 b.

38. Quronov D. (2010) Adabiyotshunoslik lug'ati. – T: Akademnashr. 2010. 173 b.

39. Eron shoirlari. (1958) -T., 1958. -B. 60-61.

40. Ян Рипка. (1970) История персидской и таджикской литературы. –М., 1970.

41. Shomuhamedov Sh. (2000) Jahonni maftun etgan adabiyot. – T.: TDSHI, 2000. – 140 b.

XORIJY ADABIYOT:

- Doneshnome-ye adab-e forsi. Jeld-e avval. Tehron, 1380. C. 1041.
- Farhangnome-ye adab-e forsi. Tehron, 1381. C.1535.
- Rashid Yosemi. Adabiyot-e maoser. Tehron.
- Said Nafisi. Norix-e moxtasari-ye adabiyote Iron. Solnome.